

**SIRDARYO VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**
*2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishva tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

15 251
123,6 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

14 199
123,0 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar
(2020- yilda)

1 481
106,5 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogari va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijoratkorxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

9 194



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

306



Oilaviy korxonona

130



Unitar korxonona

3 236



Xususiy korxonona

25




Aksiyadorlik jamiyati

232



Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'xis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'xis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat-aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-may oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-may oylarida 1 481 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar– 1 226 ta, xususiy korxonalar– 101 ta, oilaviy korxonalar– 103 ta, muassasalar– 8 ta va boshqalar– 43 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 306 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 152 taga yoki 198,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 270 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121 taga yoki 181,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 103 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44 taga yoki 174,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-iyun holatiga ko'ra 9 194 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 596 taga yoki 39,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 613 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 410 taga yoki 38,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 226 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 109 taga yoki 10,5 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra 178 tani tashkil etib, ulardan 170 tasi yoki 95,5 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 43 taga yoki 133,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-may oylarida Viloyatimizda 12 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	63	69	92	122	170
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	4	4	4	14
Sanoat	44	51	63	85	105
Qurilish	1	2	5	6	11
Savdo	8	7	11	16	25
Tashish va saqlash	2	2	4	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	1	1
Axborot va aloqa	-	-	-	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	4	5	8


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 283	4 135	4 752	6 203	8 613
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	496	676	781	933	1 403
Sanoat	485	660	726	1 030	1 304
Qurilish	327	396	523	743	1 031
Savdo	1 040	1 321	1 484	1 930	3 001
Tashish va saqlash	290	432	456	472	475
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	123	174	223	403	541
Axborot va aloqa	54	61	64	71	83
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25	25	31	40	66
Boshqa turlar	443	390	464	581	709

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	58	73	149	270
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11	8	21	50
Sanoat	27	33	68	123
Qurilish	-	-	-	1
Savdo	13	14	24	41
Tashish va saqlash	-	-	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	12	25	43
Axborot va aloqa	-	1	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
Boshqa turlar	3	5	8	10


**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	26	18	8
Qozog'iston Respublikasi	16	11	5
Ozarbayjon Respublikasi	2	1	1
Qirg'iz Respublikasi	2	1	1
Tojikiston Respublikasi	8	5	3
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	2	2	-

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Sirdaryo viloyati	170	112	58
Guliston sh.	39	26	13
Shirin sh.	5	5	-
Yangiyer sh.	20	8	12
Oqoltin	3	1	2
Boyovut	7	4	3
Sayxunobod	11	7	4
Guliston	4	4	-
Sardoba	8	5	3
Mirzaobod	11	6	5
Sirdaryo	54	42	12
Xovos	8	4	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Guliston shahrida 39 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 22,9 %), Sirdaryo 54 ta (31,8 %), Yangiyer shahrida 20 tani (11,8 %), Sayxunobod 11 ta (6,5 %) hamda Mirzaobod 11 ta (6,5 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1-iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,9 %), Sirdaryo (14,6 %), Sayxunobod (8,1 %), Boyovut (8,0 %), Guliston (7,5 %), Mirzaobod (7,9 %), Yangiyer shahri (7,0 %), Oqoltin (5,4 %), Xovos (5,7 %), Sardoba (4,5 %), Shirin shahri (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (20,0 %), Sirdaryo (10,9 %), Sayxunobod (9,3 %), Boyovut (9,8 %), Guliston (7,1 %), Mirzaobod (8,9 %), Yangiyer shahri (5,5 %), Oqoltin (11,4 %), Xovos (7,0 %), Sardoba (7,3 %), Shirin shahri (2,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,1 %), Sirdaryo (16,8 %), Sayxunobod (8,6 %), Boyovut (7,2 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (8,4 %), Yangiyer shahri (8,7 %), Oqoltin (5,2 %), Xovos (6,2 %), Sardoba (4,6 %), Shirin shahri (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (7,8 %), Sirdaryo (1,0 %), Boyovut (2,9 %), Guliston (12,6 %), Mirzaobod (3,9 %), Yangiyer shahri (1,0 %), Oqoltin (64,0 %), Xovos (5,8 %), Shirin shahri (1,0 %) ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan, % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri—axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar—ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI', and the UZSTAT logo. A navigation menu at the top lists various services like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', etc. The main content area features a central form for 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' (Unified State Register of Enterprises and Organizations). The form includes fields for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code) and 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from the image), along with a 'Qidiruv' (Search) button. A dropdown menu is open, showing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', and 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri'. The left sidebar contains 'RASMIY STATISTIKA' (Official Statistics) with categories like 'E'lon qilish taqvimini', 'Metama'lumotlar', etc. The right sidebar contains 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information) with categories like 'Aholini ro'yxatga olish 2022', 'Harakatlar strategiyasi', etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(67) 236-86-37**